



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITDA MINTAQA SANOAT TUZILMASINI AXBOROTLASHTIRISH VA XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Rustamov Alisher Bahodirovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Qarshi filiali dotsenti

Annotatsiya: *Raqamli transformatsiya zamonaviy mintaqav sanoati oldida turgan asosiy muammolardan biridir. Yangi sanoat tuzilmalarini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati bir qator sanoat sektorlari uchun juda muhimdir. Maqolada. Raqamli iqtisodiyot sharoitda mintaqav sanoat tuzilmasini axborotlashtirish va uni xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslari keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Sanoat, biznes, globallashuv, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, raqamli texnologiyalar, logistika, transformatsiyasi, sun'iy aql.*

Jahonning yetakchi rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotining eng muhim sektorlaridan biri sanoat bo'lib xisoblandi. Bugun jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishining manbai sifatida intellektual texnologiyalar, innovatsion mahsulotlar, intellektual platforma texnologiyalar yaratish, ishlab chiqarish hamda milliy iqtisodiyotning sanoat tarmoq tuzilmalarini ular asosida samarali rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi.

Jahon amaliyoti ko'rsatishicha, raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqav sanoat tuzilmasi salohiyatini oshirish va uning barqarorligini ta'minlashda intellektual texnologiyalardan foydalanib, mintaqav sanoat tuzilmasini raqamlashtirishning tashkil etilishi muhim bo'lib xisoblanmoqda. Shunday ekan, mazkur jarayoni shakllantirishda va ular faoliyatini rivojlantirish amaliyotini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, Mintaqaviy va milliy iqtisodiyotni sanoat tuzilmalarini tarmoqlashtirish jarayonini nazarda tutuvchi sanoatning institutsional tuzilmasini takomillashtirish va sanoatda tizimli o'zgarishlar sharti eskirganlarni ishlab chiqarishdan qisqartirish, bu esa yangi zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash orqali, raqamlashtirishdir. Tadqiqotlarning o'rganish natijasida mintaqada sanoat tuzilmasining tutgan o'rni va uni axborotlashtirishning nazariy asoslarini va kelajak sanoati tuzilmasini shakllantirish uchun albatta biz sanoat tizimi va unga berilgan ta'riflarni o'rganib chiqishimiz zarur.

Xalqaro tajribalardan ma'lumki, sanoatni raqamlashtirishni shakllantirish bir nechta yo'llar orqali amalga oshiriladi:

Birinchi usuli ishtirokchilarning tashabbusiga ko'ra, davlat organlarining qarorlari asosida hukumatlararo bitimlarga ko'ra iqtisodiy-huquqiy vakolatlar hamda tegishli yuridik va xo'jalik majburiyatlari bilan yangidan tashkil etilgan




tashkiliy tuzilmani o'zida ifodalovchi aksionerlik jamiyatini tuzish va alohida ishtirokchilarning kapitallarini ixtiyoriy birlashtirish usulidir, bu birmuncha keng tarqalgan usul hisoblanadi.

Ikkinchi usul, tashkil etilayotgan sanoat tuzilmasini axborotlashgan tizimni, ixtiyoriy ravishda boshqarishga berishi hisoblanadi.

Uchinchi usul esa, guruh ishtirokchilaridan biri boshqa korxonaga va tashkilotlarning aksiya paketlarini egallashidan iborat bo'lib, buning natijasida mintaqaga sanoat tuzilmasini ishtirokchilari shakllanadi.

Yuqoridagi usullardan foydalanish natijasida mintaqada sanoat tuzilmasini birlashtirish jarayonini quyidagi 1-rasmda shakllantirdik.



1-rasm. Mintaqa sanoatida axborot tizimi tuzilmasini rivojlanish jarayoni

Biz mintaqaga sanoatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ni boshqaruviga joriy etish uchun axborot texnologiyalarini qo'llash ko'lamlari ular tufayli erishilishi mumkin bo'lgan natijalarga to'liq muvofiq keladi, AKT tizimlarining qo'llanilishi, ya'ni biznes sub'ektining yetkazib beruvchilar, kompaniyalar, iste'molchilar, mijozlar, ishlab chiqaruvchilar bilan o'zaro aloqasi jarayonining avtomatlashtirilishi o'zaro munosabatlarni jiddiy ravishda o'zgartirishga, bunday munosabatlarning globallashtirishini va oldin mumkin bo'lmagan yuqori darajada moslashuvchanligini ta'minlashga olib keladi.

Axborot riskini tahlil qilish boshqaruvning asosiy bosqichi bo'lib, ikkita ketma-ket harakatdan iborat:

- axborot risklarini aniqlash;
- axborot xavfini baholash.

Adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilishda, biz mintaqaga sanoati boshqaruv tuzilmasini axborotlashtirish va himoyalashning uslubiy asoslari va iqtisodiy xavfsizligini turli ko'rinishlarda namoyon bo'lishini xamda ularni guruhlarga ajratib ifodaladik.



Mintaqa sanoati tuzilmasini axborotlashtirish va himoyalashning tasniflanishi

Tasniflash Belgisi	Sanoat iqtisodiy axborot xavfsizlik ko‘rinishlari
1. Iqtisodiy faoliyat darajasi	Mintaqa sanoat tuzilmasining umuman iqtisodiy xavfsizligi <ul style="list-style-type: none"> • Mintaqa sanoat tuzilmasining alohida tarkibiy bo‘linmalarining iqtisodiy xavfsizligi •Mintaqa sanoat tuzilmasining yakka tartibdagi operatsiyalarini iqtisodiy xavfsizligi
2. Iqtisodiy faoliyatning funksional ko‘rinishi	<ul style="list-style-type: none"> •Joriy faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi •Investitsion faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi •Moliyaviy faoliyatning iqtisodiy xavfsizligi •Mintaqa sanoat tuzilmasining boshqa faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi
3. Iqtisodiy manfaatlarga tahdidlarning namoyon bo‘lishi tabiati	<ul style="list-style-type: none"> •Neytral yo‘naltirilgan iqtisodiy xavfsizlik real tahdidlar •Iqtisodiy xavfsizlikka yo‘naltirilgan korxonalar mumkin bo‘lgan tahdidlarning oldini olish
4. Iqtisodiy manfaatlarga tahdid manbai	<ul style="list-style-type: none"> •Mintaqa sanoat tuzilmasining tashqi taxdidlardan himoya qilishga qaratilgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi •Mintaqa sanoat tuzilmasini ichki tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi
5. Iqtisodiy manfaatlar himoya qilinadigan mexanizmlarning mohiyati bo‘yicha korxonaning iqtisodiy xavfsizligi	<ul style="list-style-type: none"> •Ichki himoya mexanizmlari bilan ta‘minlangan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi •Tashqi himoya mexanizmlari bilan ta‘minlangan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi
6. Iqtisodiy manfaatlar himoya mexanizmlarining amaldagi yo‘nalishi	<ul style="list-style-type: none"> •Mintaqa sanoat tuzilmasining iqtisodiy manfaatlariga, ma‘lum bir omillarning salbiy ta‘sirini kamaytirish • Korxonaning iqtisodiy manfaatlariga amalga oshirilgan tahdidlar tufayli yetkazilgan zararni qoplash
7. Vaqt davri	<ul style="list-style-type: none"> •Hozirgi davrda mintaqa sanoat tuzilmasini himoya qilishni ta‘minlaydigan iqtisodiy xavfsizlik (taktik iqtisodiy xavfsizlik) • Iqtisodiy xavfsizlik, strategik (uzoq muddatli) davrda korxonaning himoyasini ta‘minlash (strategik iqtisodiy xavfsizligi)



8. Boshqaruv darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Mintaqa sanoat tuzilmasi tomonidan boshqariladigan iqtisodiy xavfsizlik • Mintaqa sanoat tuzilmasi tomonidan boshqarilmagan iqtisodiy xavfsizlik
9. Iqtisodiy manfaatlarning himoyalash darajasi	<ul style="list-style-type: none"> • Mintaqa sanoat tuzilmasining yuqori iqtisodiy xavfsizligi • Iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha o'rtacha (normal) iqtisodiy xavfsizlik • Mintaqa sanoat tuzilmasining iqtisodiy xavfsizligi past (yetarli emas) darajadagi-iqtisodiy xavfsizlik
10. Iqtisodiy manfaatlarni himoya qiluvchi parametrlarning barqarorligi	<ul style="list-style-type: none"> • Mintaqa sanoat tuzilmasining barqaror iqtisodiy xavfsizligi • Mintaqa sanoat tuzilmasining barqaror bo'lmagan iqtisodiy xavfsizligi
11. Iqtisodiy manfaatlarni himoya qilishda qo'llaniladigan usullarning qonuniyligi	<ul style="list-style-type: none"> • Qonuniy usullar bilan ta'minlangan iqtisodiy xavfsizlik usullari • Noqonuniy usullar bilan ta'minlangan iqtisodiy xavfsizlik

Ilmiy o'rganishlar natijasida mintaqa sanoati tuzilmasini axborotlashtirish va himoyalashni ta'minlashda xavfsizlikning kompleks ta'minotini yaratib olish va ushbu ta'minot asosida sanoat tarmoqlarning axborot boshqaruvini raqamlashtirish jarayonidagi tezkor qarorlarni qabul qilish va ularni himoyalash usullari ishlab chiqish zarurligi yoritib berildi. Shu nuqtai nazardan, raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarishning iqtisodiy rivojlanishida ajralmas omilidir. Raqamli makonning shakllanish darajasi moddiy -texnologik bazaning yetukligibilan bog'liq. Bu shuni ko'rsatadiki, sanoat tarmoqlarida qo'llaniladigan texnologiyalar darajasi, birinchi navbatda, raqamlashtirish va avtomatlashtirish darajasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aheleroff, S., Xu, X., Lu, Y., Aristizabal, M., Pablo Velásquez, J., Joa, B., & Valencia, Y. (2020). IoT-enabled smart appliances under industry 4.0: A case study. *Advanced Engineering Informatics*, 43, 101043.
2. Akatkin, Y., & Yasinovskaya, E. (2019). Data-centricity as the key enabler of digital government: Is Russia ready for digital transformation of public sector: *Communications in Computer and Information Science*, 947, 439-454.
3. Cimini, C., Pinto, R., & Cavalieri, S. (2017). The business transformation towards smart manufacturing: A literature overview about reference models and research agenda. *IFAC-Papers OnLine*, 50, 14952–14957.



4. Colli, M., Madsen, O., Berger, U., Møller, C., Wæhrens, B.V., & Bockholt, M. (2018). Contextualizing the outcome of a maturity assessment for Industry 4.0. *IFAC-Papers On Line*, 51, 1347–1352.

5. Рустамов А. МИНТАҚА САНОАТ ТУЗИЛМАСИНИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИҚТИСОДИЁТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИ //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 113-117.

6. Bahodirovich, R. A. (2022). MINTAQADA SANOAT TUZILMASI MA'LUMOTLAR BAZASINI YARATISHDA AXBOROT MODELİ TA'MINOTI TIZIMI. *Berlin tadqiqotlari transmilliy fan va gumanitar jurnali*, 2 (1.1 iqtisodiy fanlar).